



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 21-oktabr

568-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zamonaviy agrokompleks faoliyatini ilg‘or birja mexanizmlari asosida tashkil etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-oktabrdagi 621-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 486-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zamonaviy agrokompleks faoliyatini ilg‘or birja mexanizmlari asosida tashkil etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 2-oktabrdagi 621-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktyabrda 486-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktyabrda 486-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-oktabrdagi 621-son qarori bilan:

Quyidagilar “O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJ huzurida tashkil qilingan “Agro Exchange” MChJning asosiy vazifalari etib belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi:

aholi tomorqalarida, shuningdek, fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini erkin bozor narxida sotishga ko‘maklashuvchi “Uzex Agro” elektron savdo platformasining (keyingi o‘rinlarda — platforma) uzluksiz faoliyatini ta‘minlashi;

platformani texnik qo‘llab-quvvatlash va ko‘rsatiladigan xizmatlarni bozor tamoyiliga asoslangan holda doimiy takomillashtirib borishi;

hududlardagi qishloq xo‘jaligi mo‘ljallangan bo‘sh turgan yer maydonlarini o‘zlashtirish orqali zamonaviy agrokomplekslarni tashkil qilishi;

agrokomplekslar atrofida jozibador investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi;

belgilanishicha:

platforma O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining “Online mahalla” elektron platformasi bilan integratsiya qilinadi;

davlat buyurtmachilari va ularga outsorsing asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish xizmatini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini platforma orqali xarid qilish huquqiga ega bo‘lishi;

aholi tomorqalarida, fermer va dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha amalga oshirilgan savdolar natijalariga ko‘ra o‘rtacha narxlar shakllantirilishi va har kuni platformada e‘lon qilinishi. Bunda davlat buyurtmachilari xaridlarni amalga oshirishda ushbu o‘rtacha narxlardan foydalanishi;

2025-yil 1-yanvarga qadar aholidan, dehqon va fermer xo‘jaliklaridan platforma orqali mahsulot sotganligi uchun vositachilik haqi undirilmaligi;

“Uzex Agro” elektron savdo platformasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov